bo‘lib xizmat qilgan birlik professional diskursda aniq bir tushunchaning nomiga aylanadi. Natijada so‘z maxsus muloqot vazifasini bajaradi. Shu sababli terminlashuvni faqat “so‘zning ma’nosi o‘zgarishi” sifatida emas, balki uning funksional qayta ixtisoslashuvi sifatida ham baholash mumkin. Bu jarayonda terminlashayotgan so‘zning ma’no tarkibida maxsuslashtiruvchi semalar paydo bo‘ladi. Umumxalq tilida kengroq ma’noni anglatgan birlik qurilish sohasida muayyan tuzilmaviy element, material, jarayon yoki texnologik amalni ifodalashi mumkin. Bunday ixtisoslashuv natijasida terminning qo‘llanish sohasi torayadi, biroq uning professional kommunikatsiyadagi ma’lumot tashish qiymati ortadi.

Xulosa va takliflar. Mazkur jarayonda yangi qurilish obyektining muayyan xususiyati avvaldan ma’lum bo‘lgan narsa yoki hodisa bilan qiyoslanadi va mavjud nom yangi maxsus tushunchani ifodalash uchun terminologik vazifaga jalb etiladi. Natijada umumiste’mol leksikasiga mansub birlik kasbiy qo‘llanish doirasida semantik jihatdan ixtisoslashib, qurilish terminologiyasining tarkibiy birligiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Pardayeva I. Zargarlik terminlarining tematik tasnifi. Journal of Universal Science Research. 2023, vol. 1, 5-son.

(2). Pardayeva I.X., Ro‘ziqulov Sh.I., O‘razov A.D. Zargarlik terminlarining tematik tasnifi // Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. 2025, т. 4, № 7, с. 96.

(3). Uralov A. O‘zbek tili morfologik shakllar tizimida nomutanosiblik. Filol.f.d. diss. avtoref., Samarqand, 2024, 267-bet.

(4). Деревянкина А.С. Достижения и перспективы изучения архитектурной терминологии в рамках различных направлений терминоведения. Бюллетень медицинских Интернет-конференций. 2013, Саратов, 3. № 11, с. 1229.

(5). Костоева Ф.М. Строительная лексика ингушского языка. Автореф. дис. … канд. филол. наук, Магас, 2015, с. 15.

(6). Пардаева И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси. Гулистон, “Nodirabegim”, 2020, 8-bet.

(7). Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I жилд. Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006, 113–135-betlar.

(8). https://mlvv.tezaurs.lv/_search/e?utm_source=chatgpt.com

(9). https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2352710226013951?utm_source=chatgpt.com

Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li (Samarqand davlat Chet tillar instituti katta o‘qituvchisi, Samarqand, O‘zbekiston; E-mail: abubakirziyo95@gmail.com)

“GORIO OTA” VA “O‘TKAN KUNLAR” ROMANLARIDA OTA OBRAZINING LINGVOPOETIK TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Onore de Balzakning “Gorio ota” va Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanlarida ota obrazining lingvopoetik reprezentatsiyasi qiyosiy aspektda tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki romanda ota obrazini shakllantiruvchi leksik, frazeologik, sintaktik, metaforik, emotsional-ekspressiv va dialogik vositalarni aniqlash hamda ularning badiiy-estetik funksiyasini ochib berishdan iborat. Gorio ota obrazining nutqida qo‘llangan père, mes filles, mon cœur, mon sang, ma vie kabi birliklarning semantik-pragmatik xususiyatlari, takror, metafora, undov, ritorik savol va gradatsiyaning obraz yaratishdagi o‘rni tahlil qilingan. Yusufbek hoji obrazida o‘g‘lim,bolam, dada, bizni kechir kabi murojaat va nutqiy konstruksiyalar, nasihat, savol-javob, kechirim so‘rash va vazmin dialogning ota obrazini shakllantirishdagi roli ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, badiiy obraz, ota obrazi, ota konsepti, Gorio,Yusufbek hoji, “Gorio ota”, “O‘tkan kunlar”, metafora, murojaat, takror, dialog, monolog, emotsional-ekspressivlik, qiyosiy tahlil.*

Зиядуллаев Абубакир Ибодуллаевич (старший преподаватель Самаркандского государственного института иностранных языков, Самарканд, Узбекистан; E-mail: abubakirziyo95@gmail.com)

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ОТЦА В РОМАНАХ «ОТЕЦ ГОРИО» И «МИНУВШИЕ ДНИ»

Аннотация. *В статье в сопоставительном аспекте исследуется лингвопоэтическая репрезентация образа отца в романах Оноре де Бальзака «Отец Горио» и Абдуллы Кадыри «Минувшие дни». Основное внимание уделяется лексическим, фразеологическим, синтаксическим, метафорическим, эмоционально-экспрессивным и диалогическим средствам, формирующим образ отца. Анализируются семантико-прагматические особенности единиц père, mes filles, mon cœur, mon sang, ma vie в речи Горио, а также функции повторов, метафор, восклицаний, риторических вопросов и*

градации. В образе Юсуфбека Ходжи рассматриваются формы обращения o'g'lim, bolam, dada, bizni kechir и их роль в формировании отцовской речи.

Ключевые слова: *лингвопоэтика, художественный образ, образ отца, концепт отцовства, Горио, Юсуфбек Ходжа, «Отец Горио», «Минувшие дни», метафора, обращение, повтор, диалог, эмоциональная экспрессивность, сопоставительный анализ.*

Ziyadullayev Abubakir Ibodulla ugli (Senior Lecturer, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand, Uzbekistan; E-mail: abubakirziyo95@gmail.com)

LINGUAPOETIC INTERPRETATION OF THE FATHER FIGURE IN THE NOVELS "FATHER GORIOT" AND "BYGONE DAYS"

Annotation. *This article examines the linguopoetic representation of the father figure in Onore de Balzak's Father Goriot and Abdulla Qodiriy's Bygone Days from a comparative perspective. Particular attention is paid to lexical, phraseological, syntactic, metaphorical, emotionally expressive and dialogic means used to construct the image of the father. The study analyzes the semantic and pragmatic functions of such expressions as père, mes filles, mon cœur, mon sang, and ma vie in Goriot's speech, as well as repetitions, metaphors, exclamations, rhetorical questions and gradation. In Yusufbek Hoji's speech, forms of address such as o'g'lim, bolam, dada and the expression bizni kechir are examined as important elements of the father-son communicative relationship.*

Keywords: *linguapoetics, literary character, father figure, fatherhood concept, Goriot, Yusufbek Hoji, Father Goriot, Bygone Days, metaphor, address forms, repetition, dialogue, emotional expressiveness, comparative analysis.*

Kirish. Badiiy matnda inson obrazini yaratish muallif tomonidan tanlangan syujet va kompozitsion vositalar va tilning barcha sathlaridan estetik maqsadda foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Qahramonning qanday atalishi, unga qanday murojaat qilinishi, uning qaysi so'zlarni takrorlashi, qanday metaforalardan foydalanishi, gaplarining uzun-qisqaligi, undov va savollarning qo'llanish darajasi uning xarakterini lingvistik jihatdan individuallashtiradi.

Ota konsepti jahon adabiyotida universal obraz sifatida, uning mazmuniy strukturasida biologik qarindoshlik bilan bir qatorda, mehr, himoya, tarbiya, mas'uliyat, nasihat, qurbonlik va axloqiy burch kabi semalar mujassamlashgan. Ushbu tushunchani ma'lum bir millat yoki davr nuqtayi nazaridan emas, butun in-soniyat tarixi va kelajagi nuqtayi nazaridan qarash insonning eng birinchi Otasi Odam ato hazratlarining bizgacha yetib kelgan ma'lumotlardagi xarakter-xususiyatlari va oila a'zolariga muomalasini taqozo etadi. Turli millat vakillari tasavvur-tushunchasida mavjud holatlar ularning yashash sharoiti, etiqodi va tarixi inikosidir. Onore de Balzakning Le Pere Goriot romanida "Pere" leksemasining shaxs nomi bilan birga sarlavhaga kiritilishi Gorio obrazining individualligidan ko'ra, uning otalik maqomi muhimligini bildiradi. Romanda Gorio o'zining ikki qizi – Anastasiya va Delfin bilan bog'langan holda tasvirlanadi. Uning nutqida farzandlar haqida so'z yuritish qahramonning o'zligini ifodalash vositasiga aylanadi. Gorio "mes filles" ("qizlarim") birikmasini takrorlab, o'zining mavjudlik markazini farzandlariga ko'chiradi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Yusufbek hoji obrazi ham Otabekning otasi sifatida muhim o'rin tutadi. Biroq bu obrazning funksional doirasi biologik otalik bilan chegaralanmaydi. Yusufbek hoji oiladagi katta, maslahat beruvchi, tarbiyachi va jamiyat masalalariga munosabat bildiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Uning Otabek bilan dialoglarida murojaat, savol, nasihat, kechirim so'rash va sukut kabi kommunikativ birliklar o'zbek mentalitetida ota-o'g'il munosabatining murakkabligini ko'rsatgan.

Material va metodlar. "Ota" leksemasi oddiy qarindoshlik nomi bo'lishidan tashqari, badiiy kontekstda mehr, himoya, hukm, mas'uliyat, iztirob yoki hokimiyat semalarini ham aktuallashtirishi mumkin.

Ota obrazining lingvopoetik strukturasini shartli ravishda quyidagi qatlamlarga ajratish mumkin:

Qatlam	Asosiy vositalar	Poetik funksiyasi
Nominativ	ota, *pere*, o'g'lim, qizlarim	Obrazni nomlash
Murojaat	*mes filles*, o'g'lim, bolam, dada	Ota–farzand munosabatini ifodalash
Metaforik	yurak, qon, hayot	Mehr va ruhiy bog'liqlikni ifodalash
Ekspressiv	undov, takror, qisqa gap	Qahramonning ruhiy-emotsional holatini ifodalash
Sintaktik	savol, buyruq, iltijo	Kommunikativ munosabatni ifodalash
Pragmatik	nasihat, kechirim, duo	Ijtimoiy-axloqiy munosabatni ifodalash

Roman nomining o'zi, Le Pere Goriot, ota obrazining asardagi semantik markazini belgilaydi. Gorio qahramon sifatida nafaqat shaxsiy ismi, balki "ota" maqomi orqali identifikatsiya qilinadi. Bu holatni quyi-

dagi model orqali ifodalash mumkin: *Gorio → Pere → otalik → farzandlar → fojia.* Ya'ni, otalik Gorio obrazining ikkilamchi belgisi emas, uning badiiy identifikatsiyasining asosiy komponentidir. Gorio nutqida mes filles ("qizlarim") birikmasining takrorlanishi alohida poetik ahamiyatga ega. Masalan, qahramon og'ir ruhiy holatda: *"Mes filles, mes filles! Anastasie, Delphine*!" [2;516 p.] deya qizlarining ismlarini ketma-ket takrorlaydi. Bu yerda takrorning vazifasi axborot berish emas. Qizlarning nomini takrorlash qahramonning ruhiy zo'riqishini grammatik-sintaktik shaklda ifodalaydi. *mes filles → mes filles → Anastasiya → Delfin* orqali emotsional kuchayish hosil qilinadi. Qahramon qizlarini ularning ismlarini chaqiriq va iltijo sifatida ishlatadi. Natijada nominativ birlik murojaat birligiga, murojaat esa hissiy ekspressiyaga aylanadi.

Gorio nutqida tana a'zolari va biologik substansiyalar bilan bog'liq birliklar muhim metaforik yuklama oladi. *"N'est-ce pas mon sang?"* [2;396 p.] deya qizlarini o'z "qoni" bilan bog'laydi. Bu yerda sang ("qon") leksemasi uch qatlamli ma'no hosil qiladi: *sang → biologik qarindoshlik → ruhiy birlik.* Qizlar otaning "qoni" sifatida tasavvur qilinadi. Shuning uchun ularning holati otaning o'z holatidan ajralmaydi.

Cœur ("yurak") leksemasi ham oddiy anatomik ma'noda emas, balki mehr va hissiyot markazi sifatida qo'llanadi. Gorio qizlarini ko'rganda yoki ular haqida o'ylaganda "le cœur me bat", "ça me réjouit le cœur" [2;396 p.] kabi konstruksiyalardan foydalanadi. *cœur → his → mehr → farzand* semantik zanjiri yuzaga keladi.

Roman oxiridagi Gorio nutqi lingvopoetik jihatdan takror, undov, qisqa gaplar, buyruq, iltijo, ritorik savol, keskin semantik qarama-qarshilik ketma-ket qo'llanilganligi bilan o'ziga xos. *"Je veux mes filles!"* [2; 518 p.] *("Men qizlarimni ko'rishni xohlayman!")* kabi qisqa konstruksiya qahramonning murakkab ruhiy holatini maksimal darajada konsentratsiyalangan shaklda beradi. Keyinchalik, u "elles sont à moi" ("ular meniki") deya egalik olmoshi va keskin sintaktik konstruksiya orqali farzandlarini o'z hayotining ajralmas qismi sifatida talqin qiladi. Bu yerda *je → mes → elles → à moi* birliklari qahramonning egalik va bog'liqlik hissini kuchaytiradi.

Gorio nutqining yana bir muhim jihati *"paternité"* tushunchasining individual munosabatdan jamiyat darajasiga ko'tarilishidir. Qahramon *"La société, le monde roulent sur la paternité"* [2; 517 p.] deya otalikni jamiyatning asosiy negizlaridan biri sifatida ko'rsatadi. *ota → oila → jamiyat* semantik kengayishi kuzatiladi. Bu Gorio fojeasini oilaviy va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq muammo sifatida ko'rsatadi.

Gorio obrazining lingvopoetik murakkabligi uning nutqidagi paradoksal birliklarda ham namoyon bo'ladi. U qizlaridan aziyat chekadi, lekin ularni oqlaydi; ularning munosabatidan ranjiydi, biroq ularni sevishda davom etadi; o'zini aybdor deb biladi, ammo aybining manbaini "sevgi" deb izohlaydi. *"J'ai bien expié le péché de les trop aimer"* [2;516 p.] deya *"ularni haddan tashqari sevish gunohi"* haqida gapiradi. Bu konstruksiyada *péché ("gunoh")* diniy-semantik birlik bo'lsa-da, u bu yerda salbiy axloqiy harakatni emas, haddan tashqari ota mehrini ifodalash uchun metaforik tarzda ishlatiladi. *sevgi → ortiqcha sevgi → gunoh → jazo → fojia* semantik zanjiri yuzaga keladi.

Gorio obrazida monologik-emotsional nutq ustuvor, Yusufbek hoji obrazida dialogik nutq muhim rol o'ynaydi. *"Marg'ilonda nima ishlar qilding?"* [1;60-b.] degan savol bilan boshlaydi. Otabekning javobidan keyin savol-javoblar ketma-ketligi davom etadi. Bu savol oddiy axborot olish vositasi emas. Unda *ota nazorati, xavotir, mas'uliyat, tarbiyaviy pozitsiya* semalari mavjud.

Yusufbek hoji nutqidagi eng muhim murojaat shakllaridan biri – o'g'lim. Ota va o'g'il o'rtasidagi keskin suhbat davomida ham bu murojaat saqlanib qoladi. *"bizni kechir, o'g'lim"* [1;71-b.] degan konstruksiyada o'g'lim nafaqat qarindoshlikni, balki otaning farzand oldidagi mehr va mas'uliyatini ham ifodalaydi. Bu jihat juda muhim: Yusufbek hoji Otabek bilan ziddiyatga kirishgan paytda ham uni "o'g'lim" deb ataydi. *o'g'lim → qarindoshlik → mehr → yarashuv → axloqiy mas'uliyat* semantik-pragmatik zanjiri yuzaga keladi.

Yusufbek hojining *"katta ahmoqliq qilibsan, bolam"* [1;76-b.] degan nutqida "ahmoqliq" tanbeh ma'nosini ifodalasa, "bolam" murojaati tanbehning keskinligini yumshatadi. Bu yerda ikki birlik qarama-qarshi pragmatik funksiyani bajaradi: *tanbeh+mehr.* Ya'ni, *salbiy baho+ijobiy murojaat=tarbiyaviy nutq.* Bu Yusufbek hoji obrazining muhim lingvopoetik belgilaridan biridir.

Yusufbek hoji Otabek bilan suhbatda *"Shundog'mi... undog' bo'lsa, bizni kechir, o'g'lim"* [1;102-b.] deydi. Bu konstruksiya ota obrazining ichki evolyutsiyasini ko'rsatadi. Avval, u savol beradi, keyin o'z pozitsiyasini himoya qiladi, Otabekning argumentlarini eshitgach esa o'z xatosini tan oladi. Shu sababli *savol → e'tiroz → anglash → kechirim so'rash* kommunikativ modeli yuzaga keladi. Bu Gorio obrazidagi "men azob chekdim" tipidagi monologik ekspressiyadan sezilarli farq qiladi.

Yusufbek hoji nutqining muhim jihatlaridan biri uning individual nutqi bilan xalqona-milliy nutqning uyg'unlashuvidir. *"Xom sut emgan bandamiz"* [2;153-b.] kabi konstruksiya insonning kamchilikka

moyilligi haqidagi xalqona-falsafiy qarashni ifodalaydi. Shu kabi birliklar qahramon nutqini oddiy kundalik dialogdan yuqoriga koʻtarib, unga aforizmik va didaktik xususiyat beradi. Yusufbek hoji, shuningdek, faqat oilaviy masalalar haqida emas, jamiyat va siyosiy hayot haqida ham fikr bildiradi. Masalan, u qipchoq qirgʻini va mamlakatdagi manfaatparastlik haqida gapirar ekan, *"xalqning odam boʻlishidan tamom umidimni kesib qoʻydim"* [1;189-b.] deydi. Bu jihat Yusufbek hoji obrazidagi *"ota"* semasining kengayishini koʻrsatadi: *ota → oila → mahalla → xalq → jamiyat.* Yusufbek hoji obrazida ota tushunchasi faqat biologik qarindoshlik bilan chegaralanmaydi. U kattalik, masʼuliyat, maslahat va jamiyat taqdiriga daxldorlik semalarini ham oʻzida birlashtiradi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Ikki obrazni qiyoslashda ularning nutqiy vositalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Lingvopoetik vosita	Gorio	Yusufbek hoji
Asosiy murojaat	*mes filles*	oʻgʻlim, bolam
Asosiy metafora	Yurak, qon, hayot	Bevosita metaforalardan koʻra xalqona-hikmatli birliklar ustun
Nutq turi	Monologik-emotsional	Dialogik-nasihatomuz
Takror	Juda faol	Nisbatan cheklangan
Undov	Yuqori darajada	Nisbatan kam
Savol	Koʻproq ritorik va iltijoli	Koʻproq dialogik
Buyruq	Hissiy zoʻriqish holatida	Tarbiyaviy va nazorat xarakterida
Sukut	Ruhiy iztirob bilan bogʻliq	Muloqotdagi psixologik vosita
Kechirim	Ichki iztirob shaklida	Bevosita "bizni kechir" konstruksiyasi orqali
Ota obrazi	Hissiy-fidoyilikka asoslangan	Tarbiyaviy-axloqiy xarakterga ega
Farzand bilan bogʻliqlik	Oʻzlik darajasida	Masʼuliyat va mehr darajasida

Bu qiyosdan ikki muhim model ajralib chiqadi. Gorio modeli:

farzand → mehr → oʻzlik → qaramlik → iztirob → fojea

Yusufbek hoji modeli:

farzand → mehr → nasihat → masʼuliyat → kechirim → murosaga intilish

Mazkur modellar ota obrazining ikki xil lingvopoetik konsepsiyasini koʻrsatadi.

Xulosa. Har ikki asarda ota obrazi badiiy matnning muhim konseptual markazlaridan biri hisoblanadi. Gorio ota obrazining oʻzi asar nomida "Pere" leksemasi bilan identifikatsiya qilinishi uning butun badiiy mavjudligi otalik konsepti bilan bogʻlanganini koʻrsatadi. Gorio ota obrazining asosiy lingvopoetik dominantini emotsional-ekspressivlik tashkil qiladi. Yusufbek hoji obrazining lingvopoetik dominantini dialogiklik, nasihat, tarbiyaviy kommunikatsiya va axloqiy masʼuliyat tashkil qiladi. "Oʻgʻlim", "bolam" murojaatlari ota-oʻgʻil munosabatining mehrli komponentini ifodalaydi, "bizni kechir, oʻgʻlim" konstruksiyasi otaning oʻz xatosini anglash va farzand oldidagi masʼuliyatini tan olish holatini namoyon qiladi. Gorio ota va Yusufbek hoji obrazlari ota konseptining ikki xil lingvopoetik modelini namoyon qiladi. Gorio modeli hissiy-fidoyi va fojiaviy otalikni, Yusufbek hoji modeli esa axloqiy-tarbiyaviy va ijtimoiy masʼuliyatga asoslangan otalikni ifodalaydi. Har ikki obrazning semantik yadrosida farzandga mehr, uning taqdiriga daxldorlik va ota sifatidagi masʼuliyat kabi umuminsoniy qadriyatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Abdulla Qodiriy. Oʻtkan kunlar. Toshkent, 2008, 209-bet.

(2). Honore de Balzac. Œuvres complètes. Le Pere Goriot. Paris, A.Houssiaux, 1855, p. 303–531.

(3). Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, "Akademnashr", 2018, 480-bet.

(4). Shodiyev N., Toʻrayeva B. Badiiy vaqt va uning sistemasi. Toshkent, "Fan va texnologiya», 2012, 64-bet.

(5). Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Toshkent, "Mumtoz soʻz", 2012.

(6). Қаршибаева У.Д. Француз романтизм прозасининг поэтик хусусиятлари. Филол. фан. докт. ... дисс. автореферати, Тошкент, Академия ноширлик маркази, 2016, 81-бет.

(7). Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. Тошкент, "Фан", 2008, 160-бет.